

ANDALIB “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONINING MATNIY, JANRIY VA BADIY XUSUSIYATLARI: KOMPLEKS TADQIQ**Xo‘janazarov Ulug‘bek Urol o‘g‘li,***Qarshi davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o‘zbek tili) mutaxassisligi II-kurs magistranti***Ilmiy rahbar: G‘. Shodmonov,***filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (f.f.f.d.), dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqola Andalib “Yusuf va Zulayho” dostonini uch yo‘nalishda – matniy, janriy va badiiy jihatdan – kompleks tadqiq etishga bag‘ishlangan. Maqolada dostonning qo‘lyozma manbalari va toshbosma nashri qiyosiy-matniy tahlil qilinadi, uning yusufnomalar turkumidagi o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari Jomiy, Durbek, Olim Devona asarlari bilan qiyosiy o‘rganish orqali belgilanadi. She‘riy san‘atlar – tashbih, takrir, irsoly masal, mubolag‘a, husni ta‘lil – va lirik janrlar – g‘azal, murabbi, muxammas – ning dostonning badiiy tuzilishidagi roli misollar asosida ochib beriladi. Tadqiqot Andalib dostonining XVIII asr o‘zbek va turkman adabiyotlari tarixidagi o‘rnini yangi ilmiy xulosalar asosida belgilash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Andalib, Yusuf va Zulayho, yusufnoma, matnshunoslik, qo‘lyozma, toshbosma, nasru nazm, she‘riy san‘at, g‘azal, murabbi, muxammas, qiyosiy tahlil, XVIII asr.

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному исследованию дастана Андалиба “Юсуф и Зулейха” в трёх направлениях: текстологическом, жанровом и художественном. В статье проводится сравнительно-текстологический анализ рукописных источников и литографического издания дастана, его место и своеобразие в ряду произведений жанра «юсуфнаме» определяются в сравнении с произведениями Джамии, Дурбека и Алима Дивана. Роль поэтических фигур – таибиха, такрира, ирсол масала, мубалаги, хусни таълила – и лирических жанров – газели, мурабба, мухаммаса – в художественной структуре дастана раскрывается на конкретных примерах. Исследование позволяет определить место дастана Андалиба в истории узбекской и туркменской литературы XVIII века на основе новых научных выводов.

Ключевые слова: Андалиб, Юсуф и Зулейха, юсуфнаме, текстология, рукопись, литография, проза и поэзия, поэтические фигуры, газель, мурабба, мухаммас, сравнительный анализ, XVIII век.

Abstract. This article is devoted to a comprehensive study of Andalib's dastan “Yusuf and Zulayha” in three directions: textological, genre-related, and artistic. The article provides a comparative textological analysis of the manuscript sources and the lithographic edition of the dastan; its place and distinctive features among the Yusufname genre are determined through comparison with works by Jami, Durbek, and Alim Divana. The role of poetic devices – tashbih, takrir, irsolu masal, mubolag‘a, husni ta‘lil – and lyrical genres – ghazal, murabba, mukhammass – in the artistic structure of the dastan is revealed through specific examples. The study allows for the determination of Andalib’s dastan’s place in the history of 18th-century Uzbek and Turkmen literatures based on new scholarly conclusions.

Keywords: Andalib, “Yusuf and Zulayha”, Yusufname, textology, manuscript, lithography, prose and verse, poetic devices, ghazal, murabba, mukhammass, comparative analysis, 18th century.

Kirish. “Nahnu naqussa “alayka ahsanal qasas” – “Biz senga qissalarning eng go‘zalini hikoya qilamiz” deb boshlanuvchi Qur‘oni Karimning Yusuf surasi insoniyat ma‘naviy-badiiy tafakkurida beqiyos o‘rin egallaydi. Bu qissa asrlar davomida Sharq va G‘arb adabiyotlarida turli shakl va mazmumlarda qayta-qayta badiiy talqin etildi. O‘zbek mumtoz adabiyotida ham yusufnomalar alohida bir janr turkumini tashkil etib,

Rabg‘uziydan Durbekka, Jomiydan Andalibgacha bo‘lgan keng adabiy maydonda o‘z rang-barangligini namoyish etdi.

XVIII asrda yashab ijod etgan Nurmuhammad Andalib (1700–1759) bu turkumning so‘nggi va o‘ziga xos vakillaridan biridir. Uning “Yusuf va Zulayho” dostoni o‘zbek va turkman adabiyotlari kesishmasida yaratilgan noyob badiiy yodgorlik sifatida adabiyotshunosligimizda alohida o‘rin egallaydi. Biroq bu asar hali ham to‘liq ilmiy tadqiqdan o‘tkazilmagan: uning qo‘lyozma manbalari to‘liq tasnif etilmagan, toshbosma nashri bilan qiyosiy-matniy tadqiqi tugallanmagan, she‘riy san‘atlar tizimi va lirik janrlarning badiiy vazifalari atroflicha ochib berilmagan.

Adabiyotlar sharhi. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida yozilgan bo‘lib, Andalib dostonini uch yo‘nalishda - matniy, janriy va badiiy jihatdan - kompleks tadqiq etishni ko‘zlaydi. Bunday kompleks yondashuv dostonning yaxlit ilmiy manzarasini yaratish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi – Andalib “Yusuf va Zulayho” dostonini matnshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va badiiy tahlil metodlari birligi asosida kompleks o‘rganish orqali uning XVIII asr o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini yangi ilmiy xulosalar asosida belgilashdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi usullardan foydalanadi: qiyosiy-matniy tahlil (qo‘lyozma va nashr variantlarini solishtirish), qiyosiy-tipologik tahlil (boshqa yusufnomalar bilan qiyos), struktural tahlil (janr va badiiy tuzilishni o‘rganish), tarixiy-adabiy tahlil (asari va davr munosabatini yoritish).

Tahlillar va natijalar.

Adabiy-tarixiy fonda andalib va uning davri. XVIII asr o‘zbek adabiyoti: ijtimoiy-siyosiy kontekst. XVIII asr o‘zbek adabiyoti o‘ta murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda rivojlandi. Xorazm, Buxoro va Qo‘qon xonliklaridagi ichki ziddiyatlar, tashqi bosqinlar va xalq azob-uqubatlari adabiyotga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Aynan mana shu sharoitda ijod etgan Nurmuhammad Andalib o‘z asarlarida xalqning dardini, sabr va ehtiyoq orqali yengib chiqish umidini ifodaladi.

Andalib Xorazmda tug‘ilib o‘sgan. Uning o‘zi dostonida: "Shahrimiz Urganch viloyat edi, / Xonimiz shoh G‘oziy jamoat edi" deb o‘z vatani va davri haqida qimmatli ma‘lumot qoldirgan. Bu satrlar dostonning nafaqat badiiy, balki tarixiy manba sifatida ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

Andalibning ijodiy merosi lirika va doston janrlarini qamrab oladi. Uning lirik she‘rlari - g‘azal va ruboiylar - ham, “Yusuf va Zulayho” dostoni ham o‘zbek va turkman adabiyotlarida sevib o‘qiladi. Tohirovning ta‘kidlashicha, Andalib “o‘zbek va turkman adabiyotlari orasidagi ko‘prik” sifatida adabiyot tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Sharq mumtoz adabiyotida yusufnomalar - Yusuf payg‘ambar qissasiga asoslangan badiiy asarlar turkumi - o‘ziga xos adabiy hodisa sifatida alohida o‘rin egallaydi. Bu turkum IX asrdan boshlab arab, fors va turkiy adabiyotlarda rivojlana boshlagan.

Yusufnomalar taraqqiyotida uchta asosiy yoʻnalish ajralib turadi. Birinchisi - qurʼoniy-tafsiriy yoʻnalish, bu yoʻnalishda Rabgʻuziyning “Qisas ul-anbiyo” asari eng muhim namuna hisoblanadi. Ikkinchisi - tasavvufiy-ishqiy yoʻnalish, bu yoʻnalishning choʻqqisi Abduraxmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” masnavisi. Uchinchisi - xalqona-badiiy yoʻnalish, bu yoʻnalishda Durbek va Andalib asarlari muhim oʻrin tutadi.

Arabiy adabiyotda Yusuf mavzusidagi dastlabki sheʼriy asarlar IX-X asrlarda paydo boʻlgan. Forsiy adabiyotda esa Masʼud Saʼd Salmon va keyinchalik Jomiy yusufnomalarni yuksak choʻqqiga olib chiqdi. Turkiy adabiyotda Qul Alining “Qissa-i Yusuf” asari (XIII asr) bu janrning ilk namunasi sifatida taʼkidlanadi.

Oʻzbek adabiyotida Durbek (XV asr) ning "Yusuf va Zulayho" dostoni va Mirzo Olim Devonaning "Ravzai asror" asari yusufnomalar taraqqiyotidagi muhim bosqichlardir. Andalib esa bu silsilaning XVIII asrdagi eng yorqin vakiliga aylandi.

II. Dostonning matniy tadqiqi. *Matnshunoslik metodologiyasi.* Matnshunoslik - adabiy asarlarning qoʻlyozma va bosma manbalari asosida matnni toʻgʻri oʻqish, qayta tiklash va ilmiy nashrga tayyorlash bilan shugʻullanadigan filologiya sohasining muhim tarmoqidir. D.S. Lixachevning taʼrifiga koʻra: “Matnshunoslikning asosiy vazifasi muallif matnini iloji boricha toʻgʻri tiklash va uning ilmiy talqinini amalga oshirishdir”.

Oʻzbek matnshunosligida N.Jabborov va D.Jumayevalar bu yoʻnalishda muhim ilmiy ishlar amalga oshirgan. Jabborovning taʼkidlashicha, matnshunoslik tadqiqotida birlamchi manba tanlash eng muhim ilmiy qaror hisoblanadi, chunki bu qaror keyingi barcha matniy tahlillarning poydevori boʻladi.

Andalib dostonining matniy tadqiqida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi: birlamchi manbalar aniqlandi va tasniflandi; qoʻlyozmalar oʻzaro va toshbosma bilan qiyoslandi; matniy farqlar va ularning sabablari ilmiy jihatdan izohlandi; asosiy birlamchi manba belgilandi.

Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik institutida Andalib dostonining ikki qoʻlyozma nusxasi saqlanadi.

Birinchi qoʻlyozma (inv. № 360). Bu qoʻlyozma 153 varaqdan iborat. XVIII asrda - Andalib hayotidan unchalik uzoq boʻlmagan vaqtda - koʻchirilgan. Qoʻlyozma nastalik xatida yozilgan boʻlib, saqlanish holati yaxshi: sarlavha sahifasi, asosiy matn va sheʼriy parchalari toʻliq. Yozuv aniq va ravon. Kotib matnni diqqat va masʼuliyat bilan koʻchirgan - bu varaqma-varaqa tekshirish orqali aniqlangan. Qofiya va vazn belgilari saqlanib qolgan.

Ikkinchi qoʻlyozma (inv. № 5176). Bu qoʻlyozma 154 varaqdan iborat. Jumayevaning tadqiqotiga koʻra, bu nusxa birinchisidan koʻchirilgan boʻlib, ayrim soʻzlar va misralarda farqlar mavjud. Bu farqlar ikki xil xarakterga ega: birinchisi - kotib xatolari (harflar tushirib qoldirilishi, soʻzlar oʻrin almashishi); ikkinchisi - ongli oʻzgartirishlar (sinonim soʻzlar qoʻyilishi, baʼzi iboralarning almashtirilishi).

Qoʻlyozmalar oʻrtasidagi matniy farqlarni jadval koʻrinishida tasniflash mumkin: leksik farqlar (sinonim soʻzlar almashtirilishi) - 23 oʻrin; vazniy farqlar (misrada hece soni

o'zgarishi) - 7 o'rin; mazmuniy farqlar (iboraning o'zgarishi) - 4 o'rin; tushirib qoldirilgan misralar - 3 o'rin. Jami 37 o'rinda matniy farq aniqlangan.

1915 yilda Toshkentda "Aziya" litografiyasida nashr etilgan toshbosma nashri dostonni keng o'quvchilar ommasiga yetkazgan birinchi bosmaxona nashri hisoblanadi. Nashr 153 betdan iborat bo'lib, nastalik xatida chop etilgan. Toshbosma nashrini № 360 qo'lyozma bilan qiyoslash jarayonida uch guruh matniy o'zgarishlar aniqlandi:

Birinchi guruh - baytlarning tushirib qoldirilishi. Qiyosiy tahlil jarayonida toshbosmada qo'lyozmaga nisbatan 11 bayt kam ekanligi aniqlangan. Tushirib qoldirilgan baytlarning asosiy qismi dostonning lirik parchalari - g'azal va muxammaslar - dan iborat. Masalan, Yusufning chohga tashlanishi epizodida qo'lyozmada to'rtta band keladi, toshbosmada esa ikkitasi tushirib qoldirilgan.

Ikkinchi guruh - so'z almashtirishlar. Toshbosmada 34 o'rinda qo'lyozma matni bilan leksik farq aniqlangan. Bu farqlarning aksariyati sinonim so'zlar almashtirilishidan iborat. Masalan: qo'lyozmada "ko'nglim bag'rim qonga to'ldi" deb kelsa, toshbosmada "ko'nglim yuragim qonga to'ldi" deb yozilgan. "Bag'rim" so'zi o'zbek she'riyatida azob-uqubatning an'anaviy ifodasi bo'lib, "yuragim" so'ziga almashtirilishi muharrir tomonidan zamonaviy o'quvchiga moslashtirish maqsadida amalga oshirilgan.

Uchinchi guruh - nasriy qismlarning qisqartirilishi. Toshbosmada asarning nasriy bayonlari qisqartirilgan. Qo'lyozmada o'rtacha 4-5 jumladan iborat nasriy parchalar toshbosmada 2-3 jumlagacha tushirilgan. Bu holat ommabop nashr tayyorlashda xarakterli xususiyat hisoblanadi.

Yuqoridagi matniy tahlil asosida № 360 qo'lyozma asosiy birlamchi manba sifatida belgilanishi kerak degan xulosaga kelish mumkin. Bunga to'rtta asosiy asos bor: matnning to'liqligi; vazniy aniqlik; muallif uslubining saqlanishi; ko'chirish vaqtining Andalib hayotiga yaqinligi.

Janr masalasi: doston yoki qissa? Andalib dostonining janriy tasnifi adabiyotshunoslikda turlicha talqin etilgan. Bir qator tadqiqotchilar uni doston, boshqalari qissa deb ataydi. Bizning fikrimizcha, asar nasru nazm aralashligi, Qur'on talqiniga asoslanganligi va Rabg'uziy an'anasini davom ettirganligi jihatidan qissa va doston orasidagi noyob janriy hodisa sifatida talqin etilishi to'g'ri.

Nasru nazm uslubi dostonni bir tomondan Rabg'uziy an'anasiga bog'lasa, ikkinchi tomondan Durbek dostonidan farqlashtiradi. Durbek sof she'riy masnavi shaklida yozgan bo'lsa, Andalib nasrda voqealarni bayon qilib, she'riyatda qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Bu ikki usulning organik birligida asar nafaqat o'qimishli, balki musiqiy-ohangli ham bo'lib chiqadi.

Andalib dostonini boshqa yusufnomalar bilan qiyoslash uning o'ziga xos jihatlari aniqroq ko'rsatadi. Qiyosiy tahlil uchta asosiy jihatni qamrab oladi: tasavvuf masalasi, Zulayho obrazi va syujet tuzilishi.

Syujet tuzilishida. Andalib dostonida Ya'qubning o'g'illari har birining o'ziga xos kuchi batafsil ko'rsatiladi - bu xalq eposi an'anasiga yaqin usul. Jumayevaning tadqiqotiga ko'ra, Durbek dostonida bu jihat umumiy tarzda berilgan bo'lsa, Andalibda har bir qahramon individual xususiyatga ega.

Yusufning opasi obrazi - faqat Andalib dostonida uchraydigan noyob element. Bu obraz aka-ukalarning yovuz niyatlarini payqab, otasi qoshiga yuguradi va ukasini izlab ketadi. Jumayevaning kuzatishicha, bu obraz "Alpomish" dostonidagi Qaldirg'och obraziga o'xshash bo'lib, Andalib dostonining xalq eposi bilan aloqasini ko'rsatadi.

Tasavvuf ta'limotidan xoli bo'lishiga qaramasdan, Andalib dostoni chuqur diniy-axloqiy ruhga ega. Sabr, shukr va imon - asarning uch asosiy g'oyaviy tuyasi. Tohirovning so'zlari bilan aytganda: "Andalib dostonida har bir voqea ilohiy adolatning namoyon bo'lishi sifatida talqin etiladi - bu dostonning diniy-ma'rifiy qatlamini tashkil etadi".

Dostonning syujet chizig'i - Yusufning sinovdan sinovga o'tishi va nihoyat adolatning qaror topishi - o'quvchiga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Shoir sabr va ehtiqod bilan barcha sinovni yengib chiqish mumkin degan g'oyani zamondoshlariga yetkazmoqchi bo'lgan. Bu g'oya XVIII asr Xorazmining dramatik siyosiy vaziyati kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi.

Lirik janrlar va ularning badiiy vazifalari. Andalib dostonida g'azal, murabbi va muxammas - uchta asosiy lirik janr - faol qo'llaniladi. Har birining dostonning badiiy tuzilishida o'ziga xos vazifasi bor.

G'azal janri. G'azallar asosan qahramonlarning ishqiy kechinmalari, ayriliq dardi va intizorlik hislarini ifodalashda qo'llaniladi. Zulayhoning Yusufni tushida ko'rib, oshiq bo'lganini ifodalovchi g'azalda:

*Ajoyib bir pari ko'rdum, nasibam bo'lsa yorim bor,
Yurakni pora qildi tig'i ishq o'hu zorim bor.
Yuzini ko'rdimu boshimg'a soldi turfa savdoe,
Qaoru sabrim oldi, kecha-kunduz intizorim bor.*

Bu g'azalda "tig'i ishq" (ishq tigi), "turfa savdo" (g'alati sevda), "intizorim bor" kabi iboralar g'azalning emotsional ta'sir kuchini oshiradi. Qofiyalanish tizimi - "yorim bor / zorim bor / intizorim bor" - she'rning musiqiy ohangini ta'minlaydi va Zulayhoning intizorlik ruhiy holatini tasvirlashda chuqur badiiy vazifa o'taydi.

Muxammas janri. Bu janr beshlik bandlardan iborat bo'lib, Andalib undan qahramonlarning og'ir sinovlardagi ichki holatini ifodalash uchun foydalanadi. Ya'qubning Yusufdan xabar kelgandagi quvonchi muxammasda:

*Shukrulilloh, keldikim ul guluzorimdin xabar,
Qirq yil o'ldi ayro tushgan navbahorimdin xabar,
Toqatim toq aylagan sabru qarorimdin xabar,
Hajridan qon yig'lagan Laylu nahorimdin xabar,
Keldi Yusuf - qirmizi yuzluk anorimdin xabar.*

Bu muxammas bandining har bir misrasida “xabar” qofiyasi takrorlanadi. Har misrada yangi bir his – intizorlik, hijron, sabr, ko‘z yoshi va nihoyat quvonch – qo‘shila boradi, oxirgi misrada esa hammasining natijasi e‘lon qilinadi. Bu tuzilish muxammasning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanishning yorqin misoli.

Murabbi janri. Andalib murabbilarni ko‘proq otalar va oilalar kechinmalarini ifodalashda ishlatadi. Ya‘qubning qiziga berayotgan taskin so‘zlarida:

*Nola qilib yuragimni kuydurma,
Hazon urub xirmanimni el oldi.
Qayg‘u bilan qizil yuzum so‘ldurma,
Toza bog‘im, imoratim sel oldi.*

Bu murabbi bandidagi “xirman” (don xirmoni) va “bog‘” obrazlari qishloq hayotidan olingan xalqona tasvirlar bo‘lib, ularni “hazon” (kuz shamoli) va “sel” (toshqin) bilan birlashtirib ko‘rsatish ayriliq va yo‘qotishning o‘ta ta‘sirchan badiiy tasvirini yaratadi.

Andalib dostonida she‘riy san‘atlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat badiiy bezak sifatida emas, balki asarning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Andalib dostonining badiiy tili boshqa yusufnomalarga nisbatan ancha sodda va ravon. Shoir murakkab arabiy-forsiy iboralardan ko‘ra xalq tiliga yaqin so‘z va ifodalarga afzallik beradi. Bu xususiyat dostonni barcha ijtimoiy tabaqalarga o‘qishli qiladi.

Dostonning xalqona ruhi nafaqat tilda, balki tasvirlar tizimida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, Ya‘qub o‘g‘lini yo‘qotgandagi holati:

*Fig‘ondin Ya‘qub olamni ko‘chirdi,
Yonib turgan chirog‘ini o‘chirdi.*

“Chirog‘ini o‘chirdi” tashbihi – farzand chirog‘ sifatida – nihoyatda ta‘sirchan. Chirog‘ o‘chishi hayot nuri o‘chishi, oila baxti so‘nishi demak. Bu xalq she‘riyatida keng ishlatiladigan ramz bo‘lib, Andalib uni yangi badiiy kontekstda jonlantirgan.

Andalibning badiiy mahorati xalqona tasvirlar va mumtoz she‘riy san‘atlarning organik birlashuvida namoyon bo‘ladi. U bir tomondan Rabg‘uziy va Durbek an‘analarini davom ettirsa, ikkinchi tomondan o‘z davrining lirik tuyg‘ularini va xalq dardini she‘riy san‘atlarning yangi kombinatsiyalari orqali ifodalaydi.

Xulosa. Ushbu kompleks tadqiqot Andalib “Yusuf va Zulayho” dostoni haqida quyidagi ilmiy xulosalarga olib keldi:

Matniy jihatdan: Andalib dostonining ikkita qo‘lyozma nusxasi – inv. № 360 va № 5176 – o‘rtasida 37 o‘rinda matniy farq mavjud. 1915 yildagi toshbosma nashrida esa qo‘lyozmaga nisbatan 11 bayt tushirib qoldirilgan, 34 o‘rinda so‘z almashtirilgan va nasriy qismlar qisqartirilgan. Ilmiy-tanqidiy matn yaratishda № 360 qo‘lyozma asosiy manba sifatida belgilanishi zarur.

Janriy jihatdan: Andalib dostoni yusufnomalar turkumida o'ziga xos o'rin egallaydi. U Rabg'uziy an'anasidan nasru nazm uslubini, Durbek an'anasidan xalqona badiiy ruhni davom ettiradi. Tasavvuf ta'limotidan xoli bo'lishi va Zulayho muhabbatining sof insoniy tuyg'u sifatida talqin etilishi uni Jomiy va Olim Devona dostonlaridan tubdan ajratib turadi. Badiiy jihatdan: Dostonning uch asosiy lirik janri – g'azal, murabbi, muxammas – har biri o'zining badiiy vazifasiga ega: g'azal ishqiy kechinmalar, muxammas sinovlardagi ruhiy holat, murabbi oilaviy his-tuyg'ular uchun xizmat qiladi. She'riy san'atlar – tashbih, takrir, irsoly masal, mubolag'a, husni ta'lil – Andalibda faqat badiiy bezak emas, balki asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtirish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Ushbu tadqiqot Andalib dostonining to'liq ilmiy-tanqidiy nashrini yaratish, uning o'zbek va turkman adabiyotlari tarixidagi o'rnini to'g'ri belgilash va XVIII asr adabiy muhitini yanada chuqurroq o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andalib N. Yusufu Zulayhoyni turkiy. O'zFA SHI. Qo'lyozma inv. № 360. – 153 varaq.
2. Andalib N. Yusufu Zulayhoyni turkiy. O'zFA SHI. Qo'lyozma inv. № 5176. – 154 varaq.
3. Andalib N. Yusufu Zulayhoyni turkiy. Toshbosma. – Toshkent: "Aziya" litografiyasi, 1915. – 153 b.
4. Bertels Ye.E. Navoi i Djami. – Moskva: Nauka, 1965. – 500 s.
5. Durbek. Yusuf va Zulayho. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1959. – 215 b.
6. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. – 176 b.
7. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – Toshkent: Sharq, 2001. – 208 b.
8. Jabborov N. O'zbek matnshunosligining dolzarb muammolari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 224 b.
9. Jabborov N. Jomiyning "Yusuf va Zulayho" asari turkiy tarjimasiga oid mulohazalar. – Toshkent, 1997.
10. Jomiy A. Yusuf va Zulayho. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1980. – 280 b.
11. Jumayeva D. "Yusuf va Zulayho" turkumidagi dostonlarning qiyosiy-matniy tadqiqi. PhD dissertatsiya. – Toshkent, 2020. – 155 b.
12. Karomtov H. Yusufnomalar adabiy-estetik asoslari. – Toshkent: Fan, 1999. – 198 b.
13. Komilov N. Tasavvuf. I kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. – 272 b.
14. Lixachev D.S. Tekstologiya na materiale russkoy literatury X-XVII vekov. – SPb.: Aleteyya, 2001. – 759 s.
15. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1965. – 736 b.
16. O'zFA SHI. Sharq qo'lyozmalari to'plami. VII jild. – Toshkent: Fan, 1972.
17. Qur'oni Karim. Yusuf surasi. Tarjima: Aloauddin Mansur. – Toshkent: Cho'lpon, 1992.
18. Qurbonov A. Yusuf va Zulayho qissalarining ijodiy talqinlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1997. – 1-son.
19. Rabg'uziy. Qisas ul-anbiyo. – Toshkent: Yozuvchi, 1990. – 320 b.
20. Tabari. Jome ul-bayon fi tafsir al-Qur'on. – Bayrut: Dar al-fikr, 1984. – J. 12.
21. Tohirov Q. Turkman shoiri Andalib va o'zbek adabiyoti. PhD dissertatsiya. – Samarqand, 1964. – 192 b.
22. Zamahshariy. Al-Kashshof. – Bayrut: Dar al-kitab al-arabiy, 1987. – J. 2.